



BADIIY TARJIMADA MILLIY-MADANIY SO‘ZLARNI TAJIMADAGI AKSI

Turobidinova Mohigul Akromjonovna

Tarjimonlik fakulteti

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: mohigulturobidinova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada badiiy tarjimaning asosiy xususiyatlari, milliy-madaniy so‘zlarni ikki tildagi tarjimasi, ularning tarjima qilish texnikalarini va usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tarjima, milliy-madaniy so‘zlar, realiyalar, kalka, transliteratsiya, transkripsiya tarjima qilish usullari.

Abstract: This article discusses the main features of literary translation, the translation of national-cultural words into two languages, the techniques and methods of their translation.

Key words: Literary translation, national-cultural words, realities, calque, transliteration, transcription translation methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные особенности художественного перевода, перевод национально-культурных слов на два языка, приемы и методы их перевода.

Ключевые слова: Художественный перевод, национально-культурные слова, реалии, калька, транслитерация, транскрипционные методы перевода.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida tarjimashunoslikka ehtiyoj ortib bormoqda hususan badiiy tarjimaga ham. Chunki, tarjima ilg‘or ilm-fan va texnika, san‘at va madaniy aloqalar, savdo va biznes kaliti sifati qaralmoqda. Shuning uchun tillar har qanday diplomatik aloqalarning asosiy yechimi hisoblanadi. Tarjimoni o‘rganish esa bevosita xalqlarni va millatlarni o‘zaro bog‘laydi hamda milliylikni saqlashva uni dunyoga yoyish uchun muhim vositadir.

Badiiy tarjima – bu adabiy asarlarni ya‘ni romanlar, hikoyalar, she‘rlar va boshqa ijodiy matnlarni bir tildan ikkinchi tilda qayta aks ettirish jarayonidir. Badiiy tarjimaning asosiy mazmuni asl asarning ma‘nosini, hissiyotini, uslubini va muallifning niyatini saqlab qolishdir. Badiiy tarjima quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olgan holda tarjima qilinishi zarur.

I. Ma‘no va hissiyotni saqlash: Tarjimon asl matndagi ma‘no va hissiyotlarni yangi tilga o‘tkazishda ularni o‘zgartirmaslikka harakat qilishi kerak.

Misol uchun: quroqi dasturxon- ushbu miliy so‘zni alohida tarjima qilsak bo‘ladi ammo manosi tushunarsiz g‘alaz bo‘lib qoladi. Shuning uchun bunday ba‘zi bir so‘zlar tasviriy ifodalar bilan o‘z holatida beriladi.

II. *Uslubiy moslik: Asl matnning uslubini va muallifning ifoda uslubini saqlab qolish. Bu, asarning badiiy qiyofasini saqlash va o'quvchiga asl asardagi hissiyotlarni etkazish uchun muhimdir. Masalan: roman, hajviy yoki nasriy asarni o'z holatini aniq aks ettirish uchun uslub eng asosiy qism hisoblanadi.*

III. *Madaniy kontekstni hisobga olish: Tarjimon asl asarning madaniy va tarixiy kontekstini hisobga olishi zarur, chunki badiiy asarlar ko'pincha muayyan madaniyat bilan bog'liq bo'ladi. Shunday vaziyatda makon va zamon muhim ro'l o'ynaydi.*

IV. *Ijodiy yondashuv: Badiiy tarjima jarayonida tarjimon ko'pincha ijodiy yondashuvni qo'llaydi, bu esa uning o'z fikrini va tasavvurlarini qo'shish imkonini beradi. Misol uchun: bizda otangdek ulug' bo'lsa, boshqa millatlarda ma'budadek ulug' bo'l deya tarif berishganiga guvoh bo'lishingiz mumkin.*

Badiiy tarjima – bu faqat so'zlarni o'zgartirish emas, balki madaniy, badiiy va hissiy qatlamlarni ham o'z ichiga olgan murakkab jarayon. Bu jarayon o'z ichiga tarjimonning mahorati, tajribasi va asarni tushunish darajasini oladi.

Badiiy tarjima qilish usullari turli xil usul va texnikalarni o'z ichiga oladi. Badiiy tarjima, asosan, adabiy asarlarning, she'riyat yoki proza kabi, o'ziga xos uslubini, hissiyotini va ma'nosini saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladi. Quyida badiiy tarjima qilishda qo'llaniladigan ayrim usullar:

1. **Xushmuomalalik usuli:** Tarjima qilinayotgan matnning muallifining uslubini saqlab qolish. Bu usulda, muallifning ifoda uslubini va xususiyatlari imkon qadar qo'llaniladi. Bunga misol qilib Erkin Vahidov, Maqsud Shayxzoda asarlarining tarjimasini ko'rishimiz mumkin.

2. **Erkin tarjima:** Mazmunni to'liq saqlab qolish bilan birga, matnni o'z tilidagi ifodalarga moslashtirish. Ushbu usulda tarjimon ko'proq ijodiy yondashadi.

Bunda tarjimon ko'proq madaniy so'zlarni hisobga oladi. Zar chopon, do'ppi, nimcha, sombrero, sandal kabi miliy so'zlarni ehtiyotkorlik bilan beriladi.

3. **Maqsadga yo'naltirilgan tarjima:** Tarjima qilishda maqsadni aniqlash va shu asosda matnni o'zgartirish. Bu usulda muallifning asarini maqsadli auditoriyaga moslashtirish muhimdir. Aytaylik auditoriya bollalar uchun bolsa qiziqarli hamda oddiy soda tilda bo'lishi kerak. Ammo kattalar uchun esa bir vaqda aqlni charxlab, biror manaviy ozuqa ham olishi zarur hisoblanadi. Shunday asarlar bor turli xil yoshda turlicha tushunasiz. Bu esa asarni mukammalligi yoki tajimonning mahoratligidan dalolat beradi.

4. **Metaforik va badiiy usullar:** Tarjima jarayonida metaforalar va badiiy tasvirlarni saqlab qolish. Bu usul she'riy asarlar uchun juda muhimdir.

5. **Kontekstga moslashtirish:** Tarjima jarayonida matnning madaniy va tarixiy kontekstini hisobga olish. Bu usul, ayniqsa, an'anaviy yoki madaniy jihatdan boy matnlar uchun muhimdir.



6. Sodda va tushunarli ifoda: Ba'zan badiiy asarni sodda va tushunarli qilib tarjima qilish ham kerak bo'lishi mumkin, bu esa keng auditoriyaga qaratilgan tarjima uchun foydalidir.

7. Badiiy va hissiy ta'sir: Tarjima jarayonida asarning hissiy ta'sirini saqlab qolish. Bu, o'quvchida muallifning his-tuyg'ularini yetkazish uchun juda muhimdir.

“Kichkina shaxzoda” asari bunga yaqqol misol bola oladi. Chunki uni qaysi tilda o'qimang, bir bolaning turli xil kechmalari judayam chiroyli tasvirlangan va tarjimada ham shunday aks ettirilgan. Undan tashqari uzbek adabiyotining sevimli asarlaridan biri bo'lgan “Shum bola” asarida Qoravoy haqida hikoya qiladi. Qoravoy uyidan ketib qolib, o'zining topqirligi, zukkoligi, sho'x-shaddodligi tufayli turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Shum bola bir guruh o'g'riga, har bir gapga „innay keyin?“ deb javob qaytaruvchi boyga, giyohvand mullalarga duch keladi. Ushbu asarda turli xil milliy so'zlar ham ko'zga tashlanishi mumkin. Misol uchun dandansoplik pichoq, salla, mulla aka kabi so'zlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Badiiy tarjima qilishda har bir usulni qo'llashda tarjimonning mahorati, tajribasi va matnning o'ziga xosligiga qarab yondashish lozim. Tarjima jarayoni ijodiy va murakkab bo'lib, ko'plab omillarni hisobga olishi zarur. Tarjimon agar mahorati bo'lmasa tarjima asar hissiz quruq gapga o'xshab qoladi. Agar o'ziga hos mahorati tajribasi bo'lsa, asarga jon baxshida ato etadi.

Ingliz yozuvchilaridan U. Shekispning “Otello” yokida “Rome va Juletta ” asarini ingliz tilidan uzbek tiliga mahurat bilan tarjima qilinganki ularni o'qigan odam birga his qilib yig'laydi va kuladi. Bundan tashqari A. Qodiriyning “ Mehrobdan chayon” va “O'tkan kunlar” asari o'zbeklarni yashash tarsi oilaviy muhiti, o'sha davrda sevgi muhabbati hamda davlat boshqaruvi chiroyli ochib berilgan. Birgina O'zbekoyimning “kovushim ko'chada qolg'on emas” kabi so'zlari ham ham milliylik ham osha davrning mag'rur ayollaridab biri bo'lganining isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima bu asarni nafaqat tarjima qilishni, balki qayta jon baxsh etishni talab qiladigon eng mashaqqatli tarjima turlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yozma tarjima” O. Mo'minovich kitobi 2011y
2. “Yozma tarjima” Qo'ldoshov O'.O'. 2023y
3. “Tarjima nazariyasi” I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qabarov 2012y

4. “PRESERVATION OF NATIONAL COLORITE: WAYS TO TRANSFER CULTURAL ELEMENTS IN ARTISTIC RANSLATION” 2024.11.02.

M.A. Turobiddinova's article